

### **3-SINFDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY MATNLAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI**

**Musurmanova Sevara Muxiddinovna**

*Mirzacho‘l tumani 10-maktab*

*boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim bosqichida, xususan 3-sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishda badiiy matnlar bilan ishlash metodikasining ahamiyati yoritilgan. Badiiy matnlar orqali o‘quvchilarda ongli o‘qish, matn mazmunini tushunish, tahlil qilish hamda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar, savol-javob, guruhli ishlash va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, 3-sinf o‘qish savodxonligi, badiiy matn, ongli o‘qish, tahlil, metodika.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘qish savodxonligini shakllantirish o‘quvchilarning keyingi ta‘lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatli o‘qishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, 3-sinfda o‘quvchilarning mustaqil o‘qish malakasi shakllana boshlaydi. Shu jarayonda badiiy matnlar bilan ishlash o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish va estetik didini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar orqali bolalar insoniy fazilatlar, axloqiy me‘yorlar va hayotiy tajribalarni anglay boshlaydilar.

3-sinf bosqichida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida badiiy matnlar bilan tizimli ishlash muhim metodik vazifa hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilar matnni nafaqa to‘qish, balki uning mazmunini anglash va tahlil qilishga o‘rganadilar. Badiiy matnlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ularni hayotiy voqealar bilan tanishtiradi. O‘qilgan asar orqali o‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini solishtirishni o‘rganadilar. Bu jarayon ularning

axloqiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash davomida o'quvchilarning lug'at boyligi sezilarli darajada oshadi. Yangi so'z va iboralar nutqda faol qo'llanila boshlaydi. Badiiy asarlar o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantiradi. Ifodali o'qish mashqlari orqali o'quvchilarda to'g'ri talaffuz va ohangga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalanish katta samara beradi. Savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ular matndan asosiy g'oyani ajratib olishga harakat qiladilar. Sabab–oqibat bog'lanishlarini aniqlash o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Guruhli va juftlikda ishlash usullari esa o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Jamoada ishlash jarayonida o'quvchilar bir-birining fikrini tinglashni o'rganadilar. Bu esa muloqot madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Matn asosida rasm chizish, reja tuzish kabi topshiriqlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Rasm orqali o'quvchi matn mazmunini qayta ifodalaydi. Bu usul o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi. Shuningdek, badiiy matnlar bilan ishlash o'quvchilarda estetik didni tarbiyalaydi. Asardagi obrazlar va tasvirlar bolalarda hissiy kechinmalarni uyg'otadi. Natijada o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Badiiy matnlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi. O'quvchilar o'qilgan asardan o'z hayotiga tegishli xulosalar chiqaradilar. Bu esa bilimlarning amaliy ahamiyatini oshiradi. O'qituvchining yo'naltiruvchi savollari dars samaradorligini yanada oshiradi. O'quvchilar tayyor javob emas, balki o'z fikrini bildirishga odatlanadilar. Shu tariqa, badiiy matnlar bilan ishlash 3-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnlar bilan ishlashda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

Ifodali o'qish va rollarga bo'lib o'qish;

Savol-javob va muhokama usuli;

Matn asosida rasm chizish yoki reja tuzish;

Guruhli va juftlikda ishlash;

Masalan, kichik hajmdagi hikoya yoki she'r ustida ishlash jarayonida o'quvchilar matndan asosiy fikrni ajratib olish, sabab–oqibat bog'lanishini aniqlash va xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Metodik yondashuv

Badiiy matnlar bilan ishlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Matnni ifodali o'qish;

Noma'lum so'zlar ustida ishlash;

Matn mazmunini tahlil qilish;

Savollar asosida muhokama;

Xulosa chiqarish va baholash.

Mazkur bosqichlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi hamda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, 3-sinfda o'qish savodxonligini rivojlantirishda badiiy matnlar bilan ishlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan metod va vositalar orqali o'quvchilarda ongli o'qish, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda nutq madaniyati shakllanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi va ularni keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Boshlang'ich ta'lim DTS. – Toshkent, 2021.

3.Matchonov S., Qosimova K. O'qish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

4.Jumayev M.E. Boshlang'ich ta'limda o'qishsavodxonligi asoslari. – Toshkent, 2020.

5.Saidova M.J. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. Xalqta'limi, 2021, №4.